



SIYOSIY MADANIYAT VA IJTIMOIIY-SIYOSIY BARQARORLIK

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Psixologiya va sotsiologiya kafedrası,
Sotsiologiya yo'nalishi, 3-bosqich talabasi
Askaraliyeva Nazokat Mirzatilla qizi
nazokataskaraliyeva@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Gabriel Almond, Sidney Verba, Robert Putnam, Ronald Inglehart va Christian Welzel kabi mualliflarning klassik va zamonaviy nazariyalariga tayanib, tadqiqotda siyosiy madaniyatning barqarorlikni ta'minlashdagi funksional roli ochib beriladi. 161 davlat ma'lumotlariga asoslangan empirik tahlil siyosiy beqarorlik geografik hududlar, tarixiy meros, siyosiy madaniyat darajasi va boshqaruv sifati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Maqolada fuqarolik madaniyati, ijtimoiy kapital, siyosiy ishonch va legitimlik kabi tushunchalarning barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: siyosiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolik madaniyati, ijtimoiy kapital, siyosiy ishonch.

POLITICAL CULTURE AND SOCIO-POLITICAL STABILITY

Abstract. This article analyzes the relationship between political culture and socio-political stability from both theoretical and empirical perspectives. Drawing on the classical and modern theories of Gabriel Almond, Sidney Verba, Robert Putnam, Ronald Inglehart, and Christian Welzel, the study reveals the functional role of political culture in ensuring stability. An empirical analysis based on data from 161 countries demonstrates that political instability is closely associated with



geographical regions, historical legacy, the level of political culture, and the quality of governance. The article also examines the impact of such concepts as civic culture, social capital, political trust, and legitimacy on stability.

Keywords: political culture, socio-political stability, civic culture, social capital, political trust.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь между политической культурой и социально-политической стабильностью с теоретической и эмпирической точек зрения. Опираясь на классические и современные теории Габриэля Алмонда, Сидни Вербы, Роберта Патнэма, Рональда Инглхарта и Кристиана Вельцеля, в исследовании раскрывается функциональная роль политической культуры в обеспечении стабильности. Эмпирический анализ, основанный на данных 161 страны, показывает, что политическая нестабильность тесно связана с географическими регионами, историческим наследием, уровнем политической культуры и качеством управления. В статье также рассматривается влияние таких понятий, как гражданская культура, социальный капитал, политическое доверие и легитимность, на стабильность.

Ключевые слова: политическая культура, социально-политическая стабильность, гражданская культура, социальный капитал, политическое доверие.

Kirish. Zamonaviy siyosiy tizimlarning eng muhim muammolaridan biri bu ularning barqarorligidir. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik nafaqat fuqarolarning farovonligi va xavfsizligining kafolati, balki demokratik institutlarning samarali faoliyat yuritishining asosiy shartidir. Shu nuqtai nazardan, barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni, ayniqsa siyosiy madaniyatning o'rni va ahamiyatini o'rganish



dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Siyosiy madaniyat tushunchasi XX asrning 60-yillarida Gabriel Almond va Sidney Verba tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ularning “*Fuqarolik madaniyati: besh mamlakatda siyosiy munosabatlar va demokratiya*”¹ (1963) asari ushbu sohaning fundamental manbasi bo‘lib, unda siyosiy madaniyatning uch turi – ishtirokchi madaniyat, tobe madaniyat va mahalliy madaniyat – ajratilgan. Ushbu mualliflarning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, demokratiya eng barqaror bo‘lgan jamiyatlarda tobe va mahalliy munosabatlar ishtirokchi madaniyat bilan uyg‘unlashgan holda fuqarolik madaniyatini tashkil qiladi. Siyosiy madaniyatning barqarorlikka ta’sirini o‘rganishda yana bir muhim yondashuv Robert Putnam tomonidan ishlab chiqilgan. Putnam Italiya misolida olib borgan tadqiqotida demokratik boshqaruvning muvaffaqiyati ijtimoiy kapital – fuqarolarning o‘zaro ishonchi, ko‘ngilli birlashmalarda ishtirok etishi va fuqarolik faolligi – bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Putnamning ta’kidlashicha, “*ijtimoiy kapital jismoniy yoki insoniy kapitaldan ham muhimroq bo‘lishi mumkin*”². Ronald Inglehart va Christian Welzel esa “*modernizatsiya jarayonida qadriyatlarning o‘zgarishi demokratik institutlarning barqarorligiga qanday ta’sir qilishini tahlil qilgan.*”³ Ularning xulosasiga ko‘ra, sanoatdan keyingi jamiyatlarda o‘zini ifoda etish qadriyatlarining kuchayishi demokratiyaga bo‘lgan talabni kuchaytiradi va bu esa siyosiy tizim barqarorligini mustahkamlaydi. So‘nggi empirik tadqiqotlar siyosiy beqarorlik murakkab va ko‘p omilli hodisa ekanligini tasdiqlaydi. Grecu tomonidan 2024-yilda 161 davlat ma’lumotlari asosida olib borilgan tadqiqot siyosiy

¹ Almond, Gabriel A., and Sidney Verba. *The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations*. Princeton, NJ: Princeton University Press. 1963

² Putnam, R. D. *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community*. Simon & Schuster. 2000, p.-19.

³ Inglehart, Ronald, and Christian Welzel. *Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence*. Cambridge: Cambridge University Press. 2005



beqarorlikdagi sezilarli farqlar geografik hududlar, tarixiy meros, siyosiy madaniyat darajasi va boshqaruv sifati bilan bog'liqligini ko'rsatdi.⁴

Ushbu maqolada “Siyosiy madaniyat jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?” degan asosiy tadqiqot savoliga javob berish maqsad qilingan. Shu asosda quyidagi farazlar ilgari suriladi:

- fuqarolik madaniyatining yuqori darajasi barqaror demokratik tizimlarning muhim sharti;
- siyosiy ishonch va institutsional qonuniylik barqarorlikning asosiy mexanizmlari;
- ijtimoiy kapital siyosiy madaniyat va barqarorlik o'rtasida vositachi rol o'ynaydi.

Greco tomonidan 161 davlat ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan uchta analitik model qayta ko'rib chiqildi. Bu modellar 2010–2023 yillar oralig'ini qamrab olgan bo'lib, quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: hukumat o'zgarishlari chastotasi, siyosiy zo'ravonlik darajasi, aholi noroziligi indeksleri, boshqaruv sifati ko'rsatkichlari (*World Governance Indicators*), siyosiy madaniyat darajasi (*World Values Survey ma'lumotlari asosida*). Turli siyosiy madaniyat modellariga ega mamlakatlar – AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, Meksika – Almond va Verbaning (*1963*) dastlabki tadqiqot materiallari hamda keyingi davrlardagi World Values Survey (*2017–2022*) ma'lumotlari asosida qiyoslandi. Ushbu tadqiqot ikkinchi darajali manbalarga tayanganligi, shuningdek, siyosiy madaniyatni miqdoriy jihatdan o'lchashdagi uslubiy qiyinchiliklar asosiy cheklovlardir. Turli madaniy kontekstlarda so'rov ma'lumotlarining solishtirilishi muammoli bo'lib qolmoqda.

⁴ Greco, Sorin-Paul. “Modeling Political Instability: Political Culture, Governance, and Regional Relations in 161 Countries.” Center for Socio-Economic Studies and Multiculturalism no. 4: 45–59. 2004



Tahlillar siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikning bir qancha muhim jihatlarini ochib berdi.

1. Fuqarolik madaniyati va barqarorlik. Almond va Verbaning (1963) besh mamlakatda (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Meksika) o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra, fuqarolik madaniyati eng barqaror demokratik tizimlarning asosini tashkil qiladi. AQSH va Buyuk Britaniyada ishtirokchi madaniyatning mahalliy va tobe munosabatlar bilan uyg'unlashgan aralashmasi kuzatilgan. "Britaniya fuqarolarining 78 foizi hukumatga ta'sir o'tkaza olishiga ishongan bo'lsa, Meksikada bu ko'rsatkich 34 foizni tashkil etgan"⁵. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, fuqarolik madaniyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda siyosiy tizim barqarorligi ham yuqori bo'lgan.

2. Ijtimoiy kapital va boshqaruv samaradorligi. Putnam (1993) Italiyaning 20 mintaqasida olib borgan 20 yillik tadqiqotida ijtimoiy kapital (o'zaro ishonch, fuqarolik birlashmalarida ishtirok, ovoz berish faolligi) bilan mintaqaviy boshqaruv samaradorligi o'rtasida kuchli musbat korrelyatsiya aniqlagan. Putnamning xulosasiga ko'ra, ijtimoiy kapitalning quyuqligi demokratik institutlarning barqaror va samarali ishlashining muhim shartidir.

Yuqori boshqaruv sifati va rivojlangan siyosiy madaniyatga ega bo'lgan mamlakatlarda siyosiy beqarorlik darajati sezilarli darajada past ekanligi aniqlandi. Xususan, siyosiy madaniyat ko'rsatkichining bir standart chetlanishga oshishi siyosiy beqarorlik indeksining o'rtacha 0.4 standart chetlanishga kamayishiga olib keladi.

3. Legitimlik va siyosiy ishonch. Zamonaviy Yevropa demokratiyalarida siyosiy qo'llab-quvvatlashning dinamikasini o'rganuvchi tadqiqotlar (*European Social Survey, 2002–2022*) siyosiy institutlarga ishonchning pasayib borayotganini

⁵ Almond, G. A., & Verba, S. *The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations*. Princeton University Press, 1963.



ko'rsatmoqda. "2002 yilda Yevropa Ittifoqiga a'zo 15 davlatda parlamentga ishonch ko'rsatkichi o'rtacha 53 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 41 foizgacha tushgan."⁶ Shu bilan birga, demokratik tamoyillarni qo'llab-quvvatlash nisbatan barqaror (o'rtacha 82 foiz) bo'lib qolmoqda. Bu esa "tizimli qo'llab-quvvatlash" (*diffuse support*) va "maxsus qo'llab-quvvatlash" (*specific support*) o'rtasidagi Easton (1965) tomonidan taklif qilingan farqning muhimligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Birinchidan, fuqarolik madaniyatining barqarorlikdagi roli Almond va Verbaning (1963) klassik xulosalarini tasdiqlaydi. Ishtirokchi madaniyatning mahalliy va tobe madaniyat elementlari bilan uyg'unlashgan aralashmasi demokratik tizimlarni haddan tashqari talablar va beqarorlikdan himoya qiladi. Britaniya misolida kuzatilganidek, fuqarolar siyosiy tizimga ta'sir o'tkaza olishlariga ishonadilar, biroq agar ularning talablari darhol qondirilmasa, tizimni qulashga mahkum etmaydilar. Aynan shu muvozanat fuqarolik madaniyatining barqarorlikni ta'minlovchi asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ikkinchidan, sabab-oqibat munosabatlarining yo'nalishi masalasi muhim. Almond va Verbaning ta'kidlashicha, "siyosiy tuzilmalar siyosiy madaniyatga ta'sir ko'rsatadi"⁷. Masalan, G'arbiy Germaniyada urushdan keyingi iqtisodiy mo'jiza fuqarolarning demokratiyaga bo'lgan ishonchini mustahkamlagan. Shu bilan birga, siyosiy madaniyatning o'zi ham tizim barqarorligiga mustaqil ta'sir ko'rsatadi. Bu ikki tomonlama munosabat siyosiy madaniyat va barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda ehtiyot bo'lishni talab qiladi. Uchinchidan, ijtimoiy kapitalning pasayishi zamonaviy demokratiyalar uchun muammo bo'lib qolmoqda. Putnam (2000) AQSH misolida ko'rsatganidek, fuqarolik birlashmalariga a'zolik, ko'ngillilik va o'zaro ishonch ko'rsatkichlari 1960-yillardan

⁶European Social Survey (ESS). ESS Data Rounds 1–10. Norwegian Centre for Research Data.2002-2022

⁷ Almond, G. A., & Verba, S. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. Princeton University Press, 1963. P-43



boshlab doimiy ravishda pasayib bormoqda. Ushbu pasayish siyosiy tizimga bo‘lgan ishonch va barqarorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq, ba‘zi tadqiqotchilar “ijtimoiy kapital va siyosiy qo‘llab-quvvatlash o‘rtasidagi bog‘liqlik unchalik kuchli emasligini ta‘kidlaydilar.”⁸ Bu masala yanada chuqurroq empirik tekshiruvni talab etadi. To‘rtinchidan, madaniy va etnik xilma-xillikni boshqarish siyosiy barqarorlik uchun muhim masala. Grecu tadqiqotiga ko‘ra, etnik va diniy xilma-xillik o‘z-o‘zidan beqarorlikka olib kelmaydi. Aksincha, bu xilma-xillikni qamrab oluvchi plyuralistik institutlar va kuchli fuqarolik madaniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar masalan, Shveysariya, Kanada barqarorligicha qolmoqda. Muammo xilma-xillikning o‘zida emas, balki uni boshqarish mexanizmlarining yetishmasligidadir. Kelgusidagi tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarga qaratilishi mumkin: birinchidan, siyosiy madaniyat va barqarorlik o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga qaratilgan panelli tadqiqotlar; ikkinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida siyosiy madaniyatning o‘zgarishi va uning barqarorlikka ta‘siri; uchinchidan, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari misolida siyosiy madaniyat va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi empirik tadqiqotlar.

Xulosa. Ushbu maqolada siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik nazariy va empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Fuqarolik madaniyati – ishtirokchi, tobe va mahalliy siyosiy munosabatlarning uyg‘unlashgan aralashmasi – barqaror demokratik tizimlarning muhim shartidir. Almond va Verba tomonidan 1963-yilda aniqlangan ushbu qonuniyat keyingi empirik tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topdi.
2. Ijtimoiy kapital (o‘zaro ishonch, fuqarolik birlashmalarida ishtirok) va boshqaruv samaradorligi o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjud. Ijtimoiy kapitalning

⁸ Norris, Pippa. *Cultural Backlash and the Rise of Populism*. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press. 2021



yuqori darajasi demokratik institutlarning barqaror va samarali ishlashini ta'minlaydi.

3. Siyosiy beqarorlikning asosiy belgilovchilari boshqaruv sifati, siyosiy madaniyat darajasi, tarixiy meros va geografik mintaqa hisoblanadi. Ushbu omillar orasida siyosiy madaniyat va boshqaruv sifati eng muhim endogen o'zgaruvchilardir.

4. Legitimlik va siyosiy ishonch zamonaviy demokratiyalarda pasayib borayotgan bo'lsa-da, demokratik tamoyillarni qo'llab-quvvatlash nisbatan barqaror bo'lib qolmoqda. Bu "tizimli qo'llab-quvvatlash"ning "maxsus qo'llab-quvvatlash"ga nisbatan barqarorroq ekanligini ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: birinchidan, fuqarolik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini takomillashtirish; ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarini va ko'ngilli birlashmalarni qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy kapitalni mustahkamlash; uchinchidan, madaniy va etnik xilma-xillikni inobatga oluvchi plyuralistik siyosatni yuritish. Siyosiy madaniyat jamiyatning "yumshoq" omili bo'lib, u mustahkam bo'lmagan hollarda hech qanday konstitutsiyaviy muhandislik barqarorlikni kafolatlay olmaydi. Shu nuqtai nazardan, siyosiy madaniyatni rivojlantirish demokratik islohotlarning uzoq muddatli muvaffaqiyatining asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Almond, Gabriel A., and Sidney Verba. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. Princeton, NJ: Princeton University Press. 1963
2. Dalton, Russell J. Citizen Politics: Public Opinion and Political Parties in Advanced Industrial Democracies. 9th ed. Thousand Oaks, CA: CQ Press. 2002
3. Easton, David. A Systems Analysis of Political Life. New York: John Wiley & Sons. 1965



4. European Social Survey. ESS Data Rounds 1–10. Bergen: Norwegian Centre for Research Data.2002-2022
5. Grecu, Sorin-Paul. “Modeling Political Instability: Political Culture, Governance, and Regional Relations in 161 Countries.” Center for Socio-Economic Studies and Multiculturalism no. 4: 45–59. 2004
6. Inglehart, Ronald, and Christian Welzel. Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence. Cambridge: Cambridge University Press.2005
7. Norris, Pippa. Cultural Backlash and the Rise of Populism. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press. 2021
8. Putnam, Robert D. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. Princeton, NJ: Princeton University Press. 1993
9. Putnam, Robert D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York: Simon & Schuster.2000